XALQ DEPUTATLARI JIZZAX VILOYATI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-avgust VI-58-208-3-0-K/24 Jizzax viloyati

Jizzax viloyatining Samarqand, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “O‘zbekiston Respublikasida ma’muriy-hududiy tuzilish to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rahbarligida 2023-yil 21-noyabr kuni kengaytirilgan tarzda o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishi 41-sonli bayonining 20-bani ijrosini ta’minlash, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi “Ma’muriy hududiy birliklar chegaralarini belgilash, yer resurslarini xatlovdan o‘tkazish hamda yaylov va pichanzorlarda geobotanik tadqiqotlarni o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 299-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023-yil 15-dekabrdagi 03/4.3-253-sonli “Yo‘l xaritasi” hamda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy-hududiy tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonunining 10-moddasi hamda O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi Jizzax viloyati boshqarmasining 2024-yil 21-iyundagi 01-01-1109-sonli xati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Jizzax viloyati ma’muriy-hududiy birliklar chegaralarini belgilash va yer resurslarini xatlovdan o‘tkazishni muvofiqlashtirish bo‘yicha hududiy komissiyasining 2024-yil 21-iyundagi “Jizzax viloyatining Samarqand, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 04-361-sonli yig‘ilishi bayoni ma’qullansin.

3. Jizzax viloyatining Samarqand, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining tavsifi 1-ilovaga muvofiq;

Jizzax viloyatining Samarqand, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegarasining kartografik chizmasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ushbu qaror O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga yuborilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining Sanoat, transport, qurilish, kommunal soha va aholiga xizmat ko‘rsatish masalalari

bo‘yicha doimiy komissiyasi hamda viloyat hokimi o‘rinbosari O.Ashurmatov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



SALIYEV ERGASH ALIBEKOVICH

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-avgustdagi
VI-58-208-3-0-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Jizzax viloyatining Samarqand, Navoiy va Sirdaryo viloyatlari bilan ma’muriy-hududiy chegara chizig‘ining
T A V S I F I

“___“ _____20___ yil Jizzax shahri

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 23-apreldagi 299-sonli qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan “Ma’muriy-hududiy birliklari chegaralarini belgilash tartibi to‘g‘risida”gi Nizom ijrosi yuzasidan, Jizzax viloyatining Qozog‘iston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi va Sirdaryo, Samarqand, Navoiy viloyatlari bilan chegaradosh qismidagi ma’muriy chegarasini belgilash bo‘yicha tavsifi ishlab chiqildi.

Jizzax viloyatining Sirdaryo viloyati bilan chegaralarini belgilashda boshlang‘ich nuqta qilib Qozog‘iston Respublikasi va Jizzax, Sirdaryo viloyatlari chegara chizig‘ining tutashgan joyi, Markaziy zovurda joylashgan nuqta boshlang‘ich 1-nuqta deb qabul qilindi. *(WGS-84 kordinatalar tizimida, shimoliy kenglik koordinatlari40°40'32,756", sharqiy uzunlik koordinatlari 68°14'53,718").*

Sirdaryo viloyati yerlari bilan 1-20 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

1 - nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishdazovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bo‘ylab 7564 metr masofada R-29 avtomobil yo‘lini va kanalni kesib o‘tib, zovurga tutashadi va o‘z yonalishini o‘zgartirmagan holda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bo‘ylab 4021 metr masofada latokka o‘tadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda latokning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 576 metr masofada dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, Markaziy Mirzacho‘l zovuribo‘yida joylashgan 2-nuqtaga tutushadi. *(shimoliy kenglik 40°34'24,881", sharqiy uzunlik 68°11'49,673").*

2-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy yo‘nalishdaMarkaziy Mirzacho‘l zovurining suv oqimiga qarshi chap tomoni bo‘ylab 1596 metr masofada Janubiy Mirzacho‘l kanalini va dala tuproq yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yidagi 3-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°33'33,332", sharqiy uzunlik 68° 11' 47,188").*

3-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda324 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1556 metr masofani o‘tib, yo‘lbo‘yidagi 4-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40° 34' 14,957", sharqiy uzunlik 68° 10' 50,296").*

4-nuqtadan chegara chizig‘i zovurni kesib o‘tib, zovurga tutashadi, va avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 1870 metr masofada zovurni kesib o‘tib dala tuproq yo‘liga tutashadi, va yo‘lning sharq tomoni bilan o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda 1829 metr masofada zovurga tutashadi va janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 5453 metr masofada Chap tarmoq kanalini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 5-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'52,638",sharqiy uzunlik 68°8'18,890").*

5-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4727 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 6-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'19,831",sharqiy uzunlik 68°11'34,914").*

6-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan zovurga tutashadi va umumiy janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 5876 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 7-nuqtagatutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'10,936",sharqiy uzunlik 68°11'27,771").*

7-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2606 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib yo‘l bo‘yidagi 8-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°25'10,862" ,sharqiy uzunlik 68°12'45,094").*

8-nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining janub tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 7010 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 9-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°22'22,516" ,sharqiy uzunlik 68°09'26,590").*

9-nuqtadan chegara chizig‘i M39 avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 8154 metr masofani o‘tib yo‘l bo‘yidagi 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'05,838", sharqiy uzunlik 68°05'35,933").*

10-nuqtadan chegara chizig‘i M39 avtomobil yo‘lidan 18-Janubiy taqsimlagich kanaliga tutashadi va janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimga qarshi chap tomoni bilan 2382 metr masofani o‘tib, keyin janubiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 4374 metr, masofada Janubiy Mirzacho‘l kanalini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 11-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°16'06,818" ,sharqiy uzunlik 68°08'06,784").*

11 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1208 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 8327 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2950 metr, so‘ng janubiy-sharqiy yo‘nalishda 1637 metr, so‘ngra sharqiy yo‘nalishda 996 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 40°15'06,022" ,sharqiy uzunlik 68°18'19,151").*

12 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 6260 metr, keyin sharqiy-sharqiy-sharqiy yo‘nalishda 1925 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 12-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 40°15'57,063" ,sharqiy uzunlik 68°23'56,437").*

13 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lining janub tomoni bilan avval sharqiy yo‘nalishda 2881 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 3648 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 14-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'38,580" ,sharqiy uzunlik 68°28'27,317").*

14 - nuqtadan chegara to‘g‘ri chiziq orqali avtomobil ko‘prigini kesib o‘tib, Janubiy Mirzacho‘l kanaliga tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 429 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan avval sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 2833 keyin sharqiy yo‘nalishda 2519 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 5446 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 850 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 15-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'43,215" ,sharqiy uzunlik 68°36'43,894").*

15 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan dambaga o‘tadi va damba bo‘ylab avval janubiy yo‘nalishda 133 metr keyin g‘arbiy yo‘nalishda 29 metr masofani o‘tadi, keyen Jizzax Bosh zovurini kesib o‘tib, zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda

zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1877 metr masofani oʻtib, avtomobil koʻprigi boʻyida joylashgan 16-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'38,183" ,sharqiy uzunlik 68°36'47,266").*

16 - nuqtadan chegara togʻri chiziq orqali avtomobil koʻprigini kesib oʻtib, zovurga tutashadi va janubiy yoʻnalishda zovurning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 2520 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 17-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°13'16,808" ,sharqiy uzunlik 68°36'56,622").*

17 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan avval gʻarbiy yoʻnalishda 831 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1184 metr soʻngra gʻarbiy yoʻnalishda 899 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan *(shimoliy kenglik 40°12'56,542" ,sharqiy uzunlik 68°34'59,291").*

18 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali DM-1 kanalini kesib oʻtib, sim toʻsiqqa tutashadi va sim toʻsiq boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 1018 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi soʻng yoʻlning gʻarb tomoni bilan oʻz yoʻnalishini oʻzgartirmagan holda 2107 metr masofani oʻtib, temir yoʻl boʻyida joylashgan 19-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°11'18,952" ,sharqiy uzunlik 68°35'32,420").*

19 - nuqtadan chegara toʻgʻri chiziq orqali temir yoʻlni kesib oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 445 metr masofani oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi keyin yoʻlning tomoni va yoʻnalishi oʻzgarmagan holda 2251 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 520 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga oʻtadi soʻngra yoʻlning sharq tomoni bilan janubiy-sharqiy yoʻnalishda 193 metr masofani oʻtib, Jizzax, Sirdaryo viloyatlari va Tojikiston Respublikasi chegara chiziqlari kesishgan joy, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 20-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°09'33,440" ,sharqiy uzunlik 68°36'09,980").*

Tojikiston Respublikasi yerlari bilan 20 – 21 nuqtalar oraligʻida chegara tavsifi quyidagicha:

20-nuqtadan 21-nuqtagacha chegara chizigʻi davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish boʻyicha mavjud chegara chizigʻi boʻyicha olindi. *(shimoliy kenglik 39°34'50,758", sharqiy uzoqlik 67°29'14,157")*

Samarqand viloyati yerlari bilan 21-70 nuqtalar oraligʻida chegaralar tavsifi qoʻyidagicha:

21-nuqtadan chegara chizigʻi togʻ tizmasi boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1611 metr masofada quruq soyga tutashadi va soyning oʻng tomoni boʻylab avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1073 metr, keyin shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1502 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 168 metr, soʻngra shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 180 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 22-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°36'53,684", sharqiy uzunlik 67°28'17,304").*

22-nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan quruq soyga oʻtadi va soyning oʻng tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 927 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1015 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi, soʻng dala tuproq yoʻlining gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 84 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 23-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'43,337", sharqiy uzunlik 67°28'32,555").*

23-nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan quruq soyga tutashadi va soyning chap qirqog‘i bilan umumiy shimoliy-g‘arbiy 4333 metr masofada kanalni kesib o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 24-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'57,259", sharqiy uzunlik 67°26'05,828").*

24-nuqtadan chegara chizig‘i janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda kanalning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 2233 metr masofani o‘tib, kanal bo‘yida joylashgan 25-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°37'51,789", sharqiy uzunlik 67°25'31,596").*

25-nuqtadan chegara chizig‘i kanaldan qishloq ichki yo‘liga o‘tadi va yo‘lning shimol tomon bilan avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 482 metr, keyin yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 720 metr masofada ariqqa tutashadi va shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan barcha burilishlarni hisobga olgan holda 449 metr masofada avtomobil yo‘liga tutashadi va yo‘lning g‘arb tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 130 metr masofada ariqqa tutashadi va g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 163 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 693 metr, so‘ng g‘arbiy yo‘nalishda 300 metr, so‘ngra shimoliy yo‘nalishda 278 metr, keyin g‘arbiy yo‘nalishda 845 metr masofada soyga tutashadi va janubiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng qirg‘og‘i bilan 84 metr masofani o‘tib, soyning suv ayirgichida joylashgan
26-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°38'56,031", sharqiy uzunlik 67°24'10,233").*

26-nuqtadan chegara chizig‘i soyning suv oqimi bo‘ylab chap qirg‘og‘i bilan umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2609 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 27-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°39'57,845", sharqiy uzunlik 67°24'8,070").*

27-nuqtadan chegara chizig‘i soydan ariqqa o‘tadi va avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 782 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 1542 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 316 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 921 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 163 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 73 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 74 metr masofada zovurga tutashadi va janubiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 94 metr masofada qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy yo‘nalishda 295 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy sharqiy yo‘nalishda 98 metr masofani o‘tib, soy bo‘yida joylashgan 28-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°41'31,759", sharqiy uzunlik 67°24'16,265").*

28-nuqtadan chegara chizig‘i shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 3420 metr masofani o‘tib, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3389 metr masofada soyni kesib o‘tib, avtomobil yo‘li ko‘prigida joylashgan 29-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°43'32,136", sharqiy uzunlik 67°23'27,155").*

29-nuqtadan chegara chizig‘i umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan barcha burulishlarni hisobga olgan holda 2497 metr masofani o‘tib, soy bo‘yidagi 30-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°44'16,791", sharqiy uzunlik 67°22'50,017").*

30-nuqtadan chegara chizig‘i avval shimoliy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 215 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 742 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda 375 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 690 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab avval janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 233 metr, keyin umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 306 metr, so‘ng shimoliy yo‘nalishda 27 metr masofani o‘tib, qishloq ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 320 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 31-nuqtaga tutashadi.*(shimoliy kenglik 39°45'00,681", sharqiy uzunlik 67°23'59,446").*

31-nuqtadan chegara chizig‘i avtomobil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 119 metr masofada ariqqa tutashadi va sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 186 metr masofada zovurga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda zovurning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 2828 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 32-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°45'59,577", sharqiy uzunlik 67°25'34,039").*

32-nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan ariqqa o‘tadi va sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 3950 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 189 metr masofani o‘tib, ariq bo‘yida joylashgan 33-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°46'46,314", sharqiy uzunlik 67°28'05,018").*

33-nuqtadan chegara chizig‘i ariqdan dala tuproq yo‘liga o‘tadi va yo‘lning sharq tomoni bilan shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 528 metr masofada soyni ko‘prik orqali kesib o‘tib, keyin yo‘lning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 646 metr, so‘ng yo‘lning shimol tomoni bilan shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 424 metr masofada ariqqa tutashadi va o‘z yo‘nalishini o‘zgartirmagan holda ariqning suv oqimiga qarshi o‘ng tomoni bilan 226 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 647 metr masofada avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 34-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°47'32,027", sharqiy uzunlik 67°28'59,318").*

34-nuqtadan chegara chizig‘i 4R-238 avtomabil yo‘lining sharq tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1040 metr masofada soyga tutashadi va shimoliy-sharqiy yo‘nalishda soyning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 274 metr, keyin sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 251 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi bo‘ylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 166 metr masofada ichki yo‘liga tutashadi va yo‘lning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1456 metr masofani o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 35-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°48'25,124", sharqiy uzunlik 67°29'49,673").*

35-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1777 metr, keyin janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 329 metr, so‘ng sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda barcha burulishlarni hisobga olgan holda 1664 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 322 metr, keyin umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 503 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 430 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 634 metr, keyin shimoliy yo‘nalishda 270 metr, so‘ng umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda

1212 metr, so‘ngra sharqiy-janubiy-sharqiy yo‘nalishda 98 metr, keyin janubiy yo‘nalishda 123 metr masofani o‘tib, zovur burilishida joylashgan 36-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°49'15,132" ,sharqiy uzunlik 67°32'01,814").*

36-nuqtadan chegara chizig‘i zovurning suv oqimi bo‘ylab o‘ng tomoni bilan avval shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 294 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1583 metr, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1023 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 660 metr masofani o‘tib, zovur bo‘yida joylashgan 37-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 39°49'45,999" ,sharqiy uzunlik 67°31'00,427").*

37 - nuqtadan chegara chizig‘i zovurdan sim to‘siqqa o‘tadi va sim to‘siq bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 686 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 638 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning sharq tomoni bilan g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 218 metr masofada quruq ariqqa tutashadi, keyin ariq bo‘ylab avval g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 829 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 337 metr, so‘ngra shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 648 metr masofada ekin yeri chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab avval umumiy g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2282 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 639 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 750 metr masofada M-39 avtomobil yo‘lini kesib o‘tib, yo‘l bo‘yida joylashgan 38-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°51'46,815", sharqiy uzunlik 67°28'18,576").*

38 - nuqtadan chegara chizig‘i M-39 avtomobil yo‘lining g‘arb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 83 metr masofani o‘tib, dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘lning janub tomoni bilan umumiy g‘arbiy yo‘nalishda 126 metr masofada ekin yeri chegarasiga tutashadi, keyin ekin yeri chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 949 metr, so‘ng shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 335 metr masofada temir yo‘lga tutashadi va temir yo‘l bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 52 metr masofani o‘tadi va temir yo‘lni kesib o‘tib ekin yer chegarasiga tutashadi, so‘ng ekin yer chegarasi bo‘ylab avval shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda156 metr, so‘ngra g‘arbiy yo‘nalishda 1073 metr masofada temir yo‘lga tutashadi va temir yo‘l bo‘ylab shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 241 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy bo‘ylab janubiy yo‘nalishda 217 metr masofada ekin yeri chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi bo‘ylab avval g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 680 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 69 metr masofada qabriston devoriga tutashadi va qabriston devori bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 259 metr masofani o‘tib, so‘ng quruq chegara chizig‘i orqali g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 1092 metr masofani o‘tib, 39-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°52'23,853", sharqiy uzunlik 67°26'07,616").*

39 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali avval umumiy shimoliy yo‘nalishda 662 metr, keyin shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3060 metr, so‘ng shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 340 metr masofani o‘tib, ekin yeri chegarasiga tutashadi va ekin yeri chegarasi bo‘ylab umumiy g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 127 metr masofani o‘tib, ekin yeri chegarasida joylashgan 40-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°53'58,166", sharqiy uzunlik 67°24'25,718").*

40 - nuqtadan chegara chizig‘i ekin yeri chegarasi bo‘ylab shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 142 metr masofani o‘tib, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 584 metr masofada quruq soyga o‘tadi va soy bo‘ylab avval umumiy shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 588 metr, keyin shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 805 metr masofani o‘tib, ekin yeri chegarasiga tutashadi va ekin yeri chegarasi bo‘ylab shimoliy-

gʻarbiy yoʻnalishda 354 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 456 metr, soʻng yoʻlning shimol tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 951 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 41-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'18,488", sharqiy uzunlik 67°24'40,858").*

41 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan quruq soyga oʻtadi va quruq soy boʻylab avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 430 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2574 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 578 metr, soʻngra gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 400 metr masofani oʻtib, Gʻoʻbdin togʻ tizmasiga tutashadi va togʻ tizmasi boʻylab janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1088 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 42-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'23,360", sharqiy uzunlik 67°21'51,162").*

42 - nuqtadan chegara chizigʻi Gʻoʻbdin togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2082 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda 10820 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 43-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°54'58,378", sharqiy uzunlik 67°14'38,806").*

43 - nuqtadan chegara chizigʻi Gʻoʻbdin togʻ tizmasi boʻylab avval gʻarbiy yoʻnalishda 1274 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 357 metr, soʻng umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2890 metr, soʻngra janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 108 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 44-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'07,061", sharqiy uzunlik 67°12'08,998").*

44 - nuqtadan chegara chizigʻi Gʻoʻbdin togʻ tizmasi boʻylab avval janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 494 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 2379 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 45-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°55'19,064", sharqiy uzunlik 67°10'40,017").*

45 - nuqtadan chegara chizigʻi Gʻoʻbdin togʻ tizmasi boʻylab avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2224 metr, keyin gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3967 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 46-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°56'11,843", sharqiy uzunlik 67°06'59,555").*

46 - nuqtadan chegara chizigʻi Gʻoʻbdin togʻ tizmasi boʻylab umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1928 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1054 metr masofani oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va ariq boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 780 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 47-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°57'21,441", sharqiy uzunlik 67°05'28,029").*

47 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlini kesib oʻtib, quruq ariqqa tutashadi va ariq boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 3677 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1983 metr masofani oʻtib, ariq boʻyida joylashgan 48-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°58'26,945", sharqiy uzunlik 67°03'41,514").*

48 - nuqtadan chegara chizigʻi janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda ariqning suv oqimiga qarshi chap tomoni bilan 418 metr masofani oʻtib, keyin quruq chegara chizigʻi orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 159 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan janubiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 477 metr masofada ekin yeri chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 4037 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-

shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 385 metr masofani oʻtib, yoʻl burilishida joylashgan 49-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 39°59'57,764", sharqiy uzunlik 67°01'17,345").*

49 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining shimol tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2612 metr, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 295 metr, soʻng shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 234 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 184 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 646 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan avval sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 786 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 170 metr masofada soyga tutashadi va sharqiy yoʻnalishda soyning suv oqimiga qarshi oʻng tomoni bilan 1079 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 50-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'12,743" ,sharqiy uzunlik 67°04'31,362").*

50 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali shimoliy yoʻnalishda 926 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning shimol tomoni bilan umumiy gʻarbiy yoʻnalishda 1286 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 51-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°01'42,237", sharqiy uzunlik 67°03'35,495").*

51 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali avval shimoliy yoʻnalishda 3854 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1058 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab avval gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 270 metr, keyin shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 258 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 423 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab avval umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 324 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 481 metr masofani oʻtib, quruq soy boʻyida joylashgan 52-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°04'40,294", sharqiy uzunlik 67°03'15,691").*

52 - nuqtadan chegara quruq soy boʻylab gʻarbiy yoʻnalishda 319 metr masofani oʻtib, keyin quruq chiziq orqali shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 917 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab umumiy shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1175 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2690 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 53-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°06'11,078", sharqiy uzunlik 67°00'53,301").*

53 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1525 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 857 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning janub tomoni bilan umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2651 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan boshlangʻich 54-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°07'13,812", sharqiy uzunlik 66°58'02,297").*

54 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlining janub tomoni bilan avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2261 metr, keyin gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 914 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab avval gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1179 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1795 metr masofani oʻtib, soʻng quruq chiziq orqali sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 561 metr masofani oʻtib, tomorqa devorida joylashgan 55-

nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°08'23,628", sharqiy uzunlik 66°56'48,933").*

55 - nuqtadan chegara chizigʻi tomorqa devori boʻylab sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 228 metr masofada avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 338 metr masofada yoʻlni kesib oʻtib, tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab avval shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1531, keyin janubiy-sharqiy yoʻnalishda 152 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 2964 metr masofada avtomobil yoʻlini kesib oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 56-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°10'19,644", sharqiy uzunlik 66°58'57,902").*

56 - nuqtadan chegara chizigʻi avtomobil yoʻlidan quruq ariqqa oʻtadi va quruq ariq boʻylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 3417 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1007 metr, soʻng gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 1500 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1814 metr masofani oʻtib, ekin yer chegarasi boʻyida joylashgan 57-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°12'36,574", sharqiy uzunlik 66°57'28,173").*

57 - nuqtadan chegara chizigʻi ekin yer chegarasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1986 metr, keyin shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 436 metr, soʻng janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda1190 metr masofada quruq soyga tutashadi soʻngra soy boʻylab shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1700 metr masofani oʻtib, soy boʻyida joylashgan 58-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°14'06,994", sharqiy uzunlik 66°56'22,921").*

58 - nuqtadan chegara chizigʻi quruq soy boʻylab gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 2496 metr masofada ekin yer chegarasiga tutashadi va ekin yer chegarasi boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2784 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 756 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 59-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°15'23,200", sharqiy uzunlik 66°52'40,437").*

59 - nuqtadan chegara chizigʻi shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 127 metr masofada soyni koʻprik orqali kesib oʻtib avtomobil yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan avval shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 386 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 301 metr masofada tomorqa chegarasiga tutashadi va tomorqa chegarasi boʻylab avval janubiy-sharqiy yoʻnalishda 59 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 208 metr, soʻng shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 146 metr masofanda qishloq ichki yoʻliga tutashadi va yoʻlning gʻarb tomoni bilan shimoliy yoʻnalishda 581 metr masofani oʻtib, soʻngra ekin yer chegarasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3830 metr masofani oʻtib, ekin yer chegarasida joylashgan 60-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°17'51,405", sharqiy uzunlik 66°52'47,814").*

60 - nuqtadan chegara chizigʻi ekin yer chegarasi boʻylab avval shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2130 metr, keyin shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 199 metr, soʻng shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 197 metr, soʻngra gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 271 metr, keyin gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 255 metr masofada quruq soyga tutashadi va quruq soy boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1073 metr masofani oʻtib, dala tuproq yoʻli boʻyida joylashgan 61-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°19'10,799", sharqiy uzunlik 66°51'42,740").*

61 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan ekin yer chegarasiga oʻtadi va ekin yer chegarasi boʻylab avval shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 458 metr, keyin sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 453 metr masofada quruq soyga tutashadi va soy boʻylab janubiy-janubiy-sharqiy yoʻnalishda 355 metr masofada dala tuproq yoʻliga tutashadi va yoʻlning sharq tomoni bilan avval sharqiy yoʻnalishda 201 metr, soʻng shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5167 metr, soʻngra shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 359 metr masofani oʻtib, yoʻl boʻyida joylashgan 62-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°21'37,787", sharqiy uzunlik 66°52'46,882").*

62 - nuqtadan chegara chizigʻi dala tuproq yoʻlidan Nurota togʻ tizmasi chegarasiga oʻtadi va Nurota togʻ tizmasi boʻylab avval shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 4086 metr, keyin umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 1017 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 63-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°24'07,720", sharqiy uzunlik 66°52'59,023").*

63 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab avval umumiy sharqiy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda 1027 metr, keyin shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3858 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 64-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°26'08,688", sharqiy uzunlik 66°53'58,422").*

64 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7658 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 65-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'17,269", sharqiy uzunlik 66°51'22,171").*

65 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab umumiy gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8013 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 66-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'54,585", sharqiy uzunlik 66°46'24,199").*

66 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab avval umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 1903 metr, keyin janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda 570 metr, soʻng umumiy gʻarbiy-shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3428 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 67-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°29'38,280", sharqiy uzunlik 66°43'10,152").*

67 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab avval umumiy gʻarbiy-janubiy-gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3612 metr, keyin janubiy yoʻnalishda 162 metr, soʻng gʻarbiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2732 metr, soʻngra shimoliy-gʻarbiy yoʻnalishda 405 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 68-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°28'30,985", sharqiy uzunlik 66°39'12,318").*

68 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3568 metr masofani oʻtib, togʻ choʻqqisida joylashgan 69-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°30'09,951", sharqiy uzunlik 66°39'47,570").*

69 - nuqtadan chegara chizigʻi Nurota togʻ tizmasi boʻylab umumiy shimoliy yoʻnalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 2923 metr masofani oʻtib, Jizzax viloyati, Samarqand viloyati va Navoiy viloyati chegara chiziqlari kesishgan joy, Qoratau

tog‘ cho‘qqisida joylashgan 70-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°31'37,802", sharqiy uzunlik 66°40'00,962").*

Navoiy viloyati yerlari bilan 70-78 nuqtalar oralig‘ida chegaralar tavsifi qo‘yidagicha:

70- nuqtadan chegara quruq chiziq orqali Qoratau tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3917 metr, keyin sharqiy yo‘nalishda 1022 metr, so‘ngra umumiy shimoliy yo‘nalishda 839 metr, so‘ng sharqiy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1675 metr, umumiy shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalihda 2565 masofada tog‘ tizmasida joylashgan 71-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°35'31,844", sharqiy uzunlik 66°42'17,660").*

71- nuqtadan chegara quruq chiziq orqali Qoratau tog‘ tizmasi bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalihda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 3134 metr, keyin umumiy janubiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalihda 2703 metr maofada dala tuproq yo‘liga tutashadi va yo‘l bo‘ylab g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalihda 315 metr, so‘ngra shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 869 metr, so‘ngra avtomobil yo‘lini bo‘ylab janub tomoni bilan shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 23 metr, keyin abtomobil yo‘lini kesib o‘tib, dala tuproq yo‘li bo‘ylab shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 696 metr masofada yo‘l bo‘yida joylashgan 72-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°38'42,289", sharqiy uzunlik 66°42'35,857").*

72 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘lidan soyga o‘tadi va soy bo‘ylab umumiy shimoliy-sharqiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 8360 metr masofada dala tuproq yo‘liga tutahadi va yo‘l bo‘ylab shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 7345 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 73-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°45'28,270", sharqiy uzunlik 66°47'29,724").*

73 - nuqtadan chegara chizig‘i dala tuproq yo‘li bo‘ylab g‘arbiy yo‘nalishda 352 metr, keyin shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2333 metr, so‘ng shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1556 metr, so‘ngara shimoliy-shimoliy-sharqiy yo‘nalishda 1660 metr, keyin quruq chiziq orqali umumiy shimoliy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 5720 metr masofada dala tuproq yo‘li bo‘yida joylashgan 74-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°50'55,161", sharqiy uzunlik 66°45'35,150").*

74 - nuqtadan chegara quruq chiziq orqali dala tuproq yo‘llarini kesib o‘tib, Aydar-Arnasoy ko‘li bo‘ylab umumiy shimoliy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda barcha burilishlarni hisobga olgan holda 7265 metr, keyin g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy yo‘nalishda 2635 metr masofani o‘tib, so‘ng g‘arbiy-janubiy-g‘arbiy yo‘nalishda 1794 metr, so‘ngra g‘arbiy-shimoliy-g‘arbiy 3744 metr masofada 75-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 40°55'13,802", sharqiy uzunlik 66°38'58,727").*

75 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali Aydar-Arnasoy ko‘li va saksavul o‘sgan qumloqdagi yaylovlar bo‘ylab umumiy shimoliy yo‘nalishda 17423 metr masofada 76-nuqtaga tutashadi *(shimoliy kenglik 41°04'37,997", sharqiy uzunlik 66°38'44,625")*

76 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali saksavul o‘sgan qumloqdagi yaylovlar bo‘ylab sharqiy yo‘nalishda 7590 metr masofani o‘tib, 77-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°04'54,013" ,sharqiy uzunlik 66°44'08,941").*

77 - nuqtadan chegara chizig‘i quruq chiziq orqali saksavul o‘sgan qumloqdagi yaylovlar bo‘ylab shimoliy yo‘nalishda 6661 metr masofada Forish tumani, Navoiy viloyati Konimex tumani va Qozog‘iston Respublikasi chegara chiziqlari kesishgan joy,

78-nuqtaga tutashadi. *(shimoliy kenglik 41°08'29,054", sharqiy uzunlik 66°43'44,593").*

Qozog‘izton Respublikasi yerlari bilan 78 – 1 nuqtalar oralig‘ida chegara tavsifi quyidagicha:

78-nuqtadan 1-nuqtagacha chegara chizig‘i davlatlararo chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish bo‘yicha mavjud chegara chizig‘i bo‘yicha olindi. *(shimoliy kenglik 40°40'32,756", sharqiy uzoqlik 68°14'53,718").*

Xalq deputatlari Jizzax viloyati
Kengashining
2024-yil 27-avgustdagi
VI-58-208-3-0-K/24 -son qaroriga
2-ilova

